OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO TAJRIBA

MATYAKUBOVA LAYLO MURAT QIZI

ANNOTATSIYA

Ushbu tahliliy-ilmiy maqolada zamonaviy ommaviy axborot vositalari (OAV), raqamli media hamda jurnalistika amaliyotida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy va kasbiy mexanizmlari tadqiq etiladi. Raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyati sharoitida shaxsga doir ma'lumotlarning ham inson daxlsizligi obyekti, ham nomoddiy ne'mat hamda o'ziga xos iqtisodiy aktiv sifatidagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi. O'rganishlar davomida O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi hamda Yevropa Ittifoqining GDPR, AQSHning CCPA va Xitoy Xalq Respublikasining PIPL xalqaro tajribalari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Maqola yakunida milliy media muhit va qonunchilikka "unutilish huquqi", "ma'lumotlar portativligi" tamoyillarini tatbiq etish va OAV makonida ma'lumotlar operatorlarining qat'iy javobgarlik rejimini belgilash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot vositalari, raqamli jurnalistika, shaxsiy ma'lumotlar, fuqarolik huquqi, daxlsizlik, GDPR, CCPA, PIPL, unutilish huquqi, ma'lumotlar portativligi, ma'lumotlar operatori, ma'naviy zarar.

Global raqamlashtirish jarayonlari va jamiyatda "Inson qadri uchun" tamoyilining ustuvor deb belgilanishi shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligini axborot makonida eng muhim huquqiy hamda kasbiy-etik masalalardan biriga aylantirdi. Bugungi kunda sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, "Katta ma'lumotlar" va kiber-makonning jadal kengayishi shaxsiy ma'lumotlarni nafaqat nomoddiy ne'mat, balki fuqarolik muomalasi hamda media bozoring o'ziga xos aktiviga aylantirdi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi sharoitida shaxsiy ma'lumotlar fuqaroning shaxsiy nomoddiy huquqlari obyekti bo'lish bilan birga, iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan va platformalar tomonidan tijoratlashtiriladigan manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ommaviy

axborot vositalari, onlayn nashrlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarning identifikatsion ko'rsatkichlari, foto hamda video tasvirlari, biometrik va xususiy ma'lumotlarining keng auditoriyaga tarqatilishi shaxs daxlsizligiga bo'lgan xavf-xatarlarni keskin oshirdi.

O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish va subyektlarning huquqlarini muhofaza qilishning asosiy tayanchi hisoblanadi. Biroq zamonaviy raqamli platformalar va OAV faoliyati ko'lamida amaldagi fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati yaqqol ko'rinmoqda. Amaldagi “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun va Fuqarolik kodeksining normalari raqamli media hamda electron tijoratdagi barcha munosabatlarni to'liq va mukammal qamrab olmayapti. Xususan, OAV resurslari va ma’lumotlar operatorlari tomonidan fuqarolarning roziligisiz ma’lumotlarni yig’ish, ularni uchinchi shaxslarga tijoriy maqsadlarda uzatish yoki raqamli tizimlardan sizib chiqishi natijasida yetkazilgan ma'naviy va moddiy zararni qoplashning aniq, ta’sirchan fuqarolik-huquqiy mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Fuqarolik huquqi nazariyasida shaxsiy ma’lumotlar insonning ajralmas nomoddiy ne’mati sifatida talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida fuqaroning shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqi belgilangan bo’lib, bu shaxsga doir ma’lumotlar himoyasining poydevori hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga va global kiberxavfsizlik hisobotlariga ko'ra, 2024–2025-yillarda shaxsiy ma'lumotlarning ruxsatsiz ishlov berilishi va tarqatilishi bilan bog’liq nizolar fuqarolik sudlarida 25% ga ortgan. O'zbekistonda ham raqamli OAV, bank xizmatlari va electron tijorat rivojlanishi bilan ma'lumotlar daxlsizligi buzilishi holatlari ko'paymoqda, biroq yetkazilgan zararni undirish bo'yicha sud amaliyoti endi shakllanish bosqichida turibdi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi va vakolatli organlar ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda axborot tizimlaridan shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishi bilan bog'liq xavf-xatarlar barqaror ortib bormoqda. Global miqyosda kiberjinoyatlarning 40% dan ortig’i shaxsiy ma'lumotlarni o’g’irlash va ulardan noqonuniy foydalanish bilan bog’liq. Konstitutsiyaning 31-moddasida belgilangan kafolatlar fuqarolik qonunchiligi hamda

media-huquq orqali bevosita moddiy va ma'naviy javobgarlik mexanizmlari bilan ta'minlanishi shart.

Shaxsga doir ma'lumotlarni fuqarolik-huquqiy va media doirada tartibga solishning xalqaro manzarasi turli huquqiy yondashuvlarni namoyon etadi. Bugungi kunda dunyoda ushbu sohani tartibga solishning asosiy modellari shakllangan bo'lib, ularning qiyosiy tahlili milliy qonunchilik va OAV amaliyotini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish insonning fundamental huquqi va so'z erkinligining zaruriy muvozanati sifatida talqin qilinadi. 2018-yilda kuchga kirgan GDPR reglamenti dunyo miqyosida shaxsiy ma'lumotlar muhofazasining “oltin standarti”ga aylandi.

GDPR reglamentining o'ziga xosligi shundaki, u ma'lumotlar subyektiga:

- “Unutilish huquqi”— shaxsga tegishli bo'lgan, eskirgan yoki noqonuniy yig'ilgan ma'lumotlarni raqamli muhit va qidiruv tizimlaridan o'chirishni talab qilish huquqi;
- Ma'lumotlar portativligi — o'z ma'lumotlarini bir raqamli tizimdan boshqasiga moneliksiz va oson o'tkazish imkoniyatini beradi.

GDPR modeli ma'lumotlar operatorlari va media kompaniyalarga yuqori fuqarolik-huquqiy mas'uliyat yuklaydi, bu esa foydalanuvchilarning raqamli xizmatlar va OAV platformalariga bo'lgan institutsional ishonchini 30% ga oshirishga xizmat qilgan.

AQSH yondashuvi ko'proq iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va bozor munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. Kaliforniya shtatining CCPA qonuni shaxsiy ma'lumotlarni tijoriy sotishni cheklaydi va iste'molchiga o'z ma'lumotlari qaysi manbalar orqali yig'ilayotgani va qanday maqsadlarda ishlatilayotganini aniq bilish huquqini kafolatlaydi. CCPA modelida fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari yuqori qilib belgilangan bo'lib, bu media hamda texnologik kompaniyalarni ma'lumotlar xavfsizligiga jiddiy sarmoya kiritishga majbur etadi.

Xitoyda 2021-yilda qabul qilingan PIPL “Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida”gi qonun Yevropa modeliga yaqin tamoyillarga tayanadi. PIPL transchegaraviy ma'lumot uzatishda qat'iy davlat talablarini o'rnatadi hamda raqamli platformalar va onlayn-OAV zimmasiga shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda qat'iy nazorat choralarini

yuklaydi. Xorijiy taraqqiy etgan modellarni qiyosiy tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda axborot va OAV to'g'risidagi qonunchilikka quyidagi muhim mexanizmlarni joriy etish zaruratini asoslaydi:

1. “Unutilish huquqi” va “Ma'lumotlar portativligi”ni qonunlashtirish: Fuqarolik kodeksi va axborot qonunchiligiga shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, eskirgan yoki noqonuniy yig'ilgan ma'lumotlarni raqamli muhitdan ya'ni qidiruv tizimlari, OAV arxivlari va ma'lumotlar bazalaridan o'chirib tashlashni talab qilish huquqini kiritish lozim.

2. Ma'naviy zararni aniqlash bo'yicha maxsus metodika: Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi buzilganda yetkazilgan ma'naviy zararni aniqlashda ma'lumotlarning xarakteri (biometrik, genetik yoki xususiy ma'lumotlar) va ularning tarqalishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan potensial xavflarni e'tiborga oluvchi yagona metodikani ishlab chiqish zarur.

3. Operatorlarning aybsiz javobgarligi rejimini belgilash: Ma'lumotlar operatorlari va media nashrlar tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni saqlash xavfsizligi ta'minlanmagan holatda, zarar yetganligi isbotlanishidan qat'i nazar, belgilangan miqdordagi kompensatsiya to'lash tizimi joriy etilishi kerak. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning maxsus rejimiga ko'ra, agar operator xavfsizlikni ta'minlay olmasa, u aybidan qat'i nazar yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lishi shart.

4. Minimal kompensatsiya miqdorini belgilash: Shaxsiy ma'lumotlar sizib chiqqanda yoki ruxsatsiz tarqatilganda, fuqaroning ruhiy iztirobi va kelajakdagi potensial xavflarini masalan, shaxs nomiga noqonuniy kredit rasmiylashtirish yoki obro'siga putur yetkazishni hisobga oluvchi minimal kompensatsiya miqdorini qonuniy darajada ko'rsatish taqozo etiladi.

Shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi faqatgina qonunbuzarlik uchun jazo choralarini qo'llash bilan cheklanib qolmasdan, subyektning o'z ma'lumotlari ustidan real egalik qilish huquqini ta'minlovchi faol himoya modeliga aylanishi lozim. Bu raqamli makonda va OAV faoliyatida shaxs daxlsizligini kafolatlovchi dispozitiv normalarni kengaytirishni

hamda fuqaroning o'z raqamli profili ustidan to'liq nazoratini ta'minlovchi huquqiy vositalarni tatbiq etishni talab qiladi.

Bunday kompleks va mukammal huquqiy mexanizm insonning fundamental huquqlarini ishonchli muhofaza qilish bilan birga, raqamli transformatsiya davrida mamlakatimizda elektron xizmatlar, raqamli iqtisodiyot hamda ommaviy axborot vositalariga bo'lgan institutsional va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi Qonuni. 15.04.2022-y., O'RQ-764-son.
2. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni. 02.07.2019-y., O'RQ-547-son.

II. Ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va darsliklar:

5. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyotda huquqiy tartibga solish masalalari: Monografiya. – T.: TDYU nashriyoti, 2022.
6. Yunusova D.M. Fuqarolik huquqi: Darslik. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021.

III. Jurnalistika, OAV va huquq yo'nalishidagi ilmiy maqolalar:

7. Ismoilov A.A. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari // Huquq va burch. – Toshkent, 2023. – № 4.
8. Rustambekov I.R. Raqamli makonda nomoddiy ne'matlarni himoya qilish muammolari // Yuridik fanlar axborotnomasi. – Toshkent, 2024. – № 1.
9. Xusanov O. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari // Jurnalistika va zamonaviy media. – Toshkent, 2023. – № 2. – B. 64-70.

IV. Xalqaro hujjatlar va elektron resurslar:

10. California Consumer Privacy Act (CCPA) of 2018.URL: https://oag.ca.gov/privacy/ccpa

11. General Data Protection Regulation (GDPR). Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council. 27 April 2016.

12. Personal Information Protection Law (PIPL) of the People's Republic of China. 2021. URL: http://en.npc.gov.cn.cdurl.cn/2021-12/29/c_694559.htm

13. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/